

“SUNANI TERMIZIY” HAQIDA OLIMLARNING FIKRLARI

Ilhom Abdusattorov Baxriddinovich,

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tayanch doktoranti

ilhomabdusattorov1985@gmail.com

Kalit so'zlar: “Sunani Termiziy”, “al-Jome’”, “U'lum al-hadis”, sahih, hasan, g'arib, jarh va ta'dil.

Abu Iso at-Termiziy hadisshunoslik, islom tarixi, tafsir va boshqa islomiy ilmlarga doir o'ndan ortiq kitoblar muallifidir. Subhasiz mazkur asarlari orasida eng ahamiyatli va butun dunyo musulmon olimlarining etirofiga sazovor bo'lgan shoh asari “Sunani Termiziy”dir. Alloma umrining ko'p qismini Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning hadislarini o'rganishga sarfladi. Bu yo'lda ko'plab shaharlarga safar qildi, hamda o'z davrining etuk muhaddislaridan saboq oldi. Ilm-ma'rifatda kamolotga yetganidan so'ng “Sunani Termiziy” asarini yozdi.

Abu Iso at-Termiziyning “Sunani Termiziy” asari Sihohi sitta – olti ishonchli to'plamning to'rtinchisi hisoblanadi. Asarni chuqur o'rgangan va asrlar davomida tajriba qilib ko'rgan zotlar esa: “Bu kitob qaysi uyda bo'lsa, o'sha uyga muhtojlik va qashshoqlik kirmaydi”, deganlar.

Abu Iso at-Termiziyning “Sunani Termiziy” asarini tahqiq qilgan olimlar uning mazkur asarining fazilati va boshqa hadis to'plamlaridan ajratib turuvchi o'ziga xos xususiyatlarini qayd qilib o'tganlar. Jumladan, Alloma Toshko'prulizoda Termiziyning ilmiy ijodiga shunday baho beradi: “(Termiziy) hadis ilmida ko'pgina asarlar taqdim etdi. Uning ushbu “al-Jome’ as-Sahih” kitobi bu asarlar orasida foydasi eng ko'p, tartibi eng ixcham, takrori eng oz kitobdir. Unda boshqa hadis kitoblarida uchramaydigan xususiyatlar bor:

- mazhablar va istidlol (dalil keltirish) jihatlari e'tiborga olingan;
- sahih, hasan va g'arib deb hadis turlari aniq belgilangan;

- jarh va ta'dil (nuqson va taqqos jihatlari, roviyning qiyofasi, biror sifati, aybi yoki fazilati, ishonchli yoki ishonchsiz ekani haqidagi fikrlar)ga o'rin ajratilgan;
- kitob oxirida illatlarga doir maxsus bir bob ilova qilingan. Xullas, bu kitobda ulkan foydalar jamlangandir. Kitobni mutolaa qilgan kishilar bunga tan beradilar”.

“Sunani Termiziy” asarining foydali jihatlari xususida al-Hokim an-Naysaburiy “al-Madxal ila ma’rifat kitob al-iqliyl”, al-Muqaddasiy “Shurut al-aimmat as-sitta” kabi asarlarida alohida ta’kidlaganlar. Shu bilan birga hadis ilmining istilohlarini yaratishda ham imom at-Termiziyning hissasi kattadir. Hadis ilmiga doir istilohlarni o’rganishda asosiy manbalar hisoblangan “U’lum al-hadis” (“Hadis ilmlari”) kitoblarida uchraydigan barcha istilohlar Imom at-Termiziyning “al-Jome” asarida keng ko’lamda keltirilgan.

Dehlaviy aytadi: “Abu Iso at-Termiziy ko’plab kitoblarning muallifi bo’lib, ularning ichida eng foydasi ko’pi “al-Jome’ as-Sahih” asaridir. Mazkur asar ba’zi jihatlarda boshqa hadis kitoblaridan afzaldir. Birinchidan, hadislarning tartibi va takrori kamligi. Ikkinchidan, faqihlarning mazhablarini zikr qilish bilan birga har bir mazhabning dalil keltirish uslublari aytib o’tilgan. Uchinchidan, hadislarning sahih, hasan, zaif, g’arib ekanligini hamda hadis illatli bo’lsa illatini aytib o’tgan. To’rtinchidan, hadis roviylarining ismlari, kunyalari, laqablari va roviylarni bilishga bog’liq boshqa foydali ilmlar bayon qilingan”.

O’tgan asrimizning eng mashhur ulamolaridan alloma Abul Hasan Ali al-Hasaniy an-Nadaviy (pahmatullohi alayh) shunday deydi: “Bugungi kunda “qiyosiy fiqh” deb nomlangan mavzuga birinchi bo’lib Termiziy assos solgan bo’lib, u juda ko’p fazilatlar egasi bo’lgan. Bugungi ummat uning o’z zamonasidagi ijtihod maktabi fiqhini saqlashdagi o’rnini alohida e’tirof etmog’i lozim. Agar Imom Termiziy bo’lmaganida zamon o’tishi bilan ko’p ilmlar iza yo’qolib ketgan bo’lard. Vaholanki, u zotning “Jome” asari hadis va sunnat kitoblari orasida yaqqol ajralib, murojaat qilinadigan manbalar ichida eng ishonchlilaridandir. Ayniqsa, Avzo’iy, Savriy, Ishoq ibn Rohavayh mazhablari kabi yo’qolayozgan mazhablarni bilishda bu zotning asarlari alohida o’rin tutadi. Bu asarining yana bir o’ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, (mutaaxxir) keyingi davr olimlariga

Shofe'iyning qadim mazhabini saqlab qolganidir”.

“Sunani Termiziy”ning tartibi juda sodda bo‘lib, alloma har bir hadisning mazmuni va matnini nazarda tutib, boblarga sarlavha tanlagan. Shuning uchun, hadislarni sarlavhalar orqali topish va uning umumiy mazmunidan xabardor bo‘lish qiyinchilik tug‘dirmaydi. Shuning uchun bugungi kunda ham mazkur kitob Turkiya, Pokiston, Hindiston va boshqa musulmon mamlakatlari madrasalarida hadis kitoblaridan dastlab o‘qitiladiga manba bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Abu Iso at-Termiziy. Sunani Termiziy sharhi. – T.: Irfon-Nashr, 2021 – J. 1.
2. Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy. “Jome’ as-sunan” (Saylanma hadislar). – T.: Movarounnahr, 2018. – 320 b.
3. Akrom Ziyo al-Umariy. Turos at-Termiziy al-ilmiy. Maktabatu ad-dar bi-l-Madina al-Munavvara. – 66 b.
4. Hamroqulov J. Imom Abu Iso Muhammad Termiziy. – T.: Movarounnahr, 2017. – 216 b.
5. Islom ensiklopediyasi. – T.: O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi nashriyoti, 2020. – 496 b.
6. Uvatov U., Usmonov U. Termizlik ikki alloma. – T.: Toshkent islom universiteti, 2017.– 144 b.
7. Mirzo Kenjabek. Buyuk Termiziylar. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.